“Tafakkur Academy Global Press”
nashriyoti



1

“Ilm-fan taraqqiyoti”
respublika ilmiy konferensiyasi

Tafakkurconference.uz

Shevalarda yordamchi so’zlarning morfologik xususiyatlari (o‘zbek qipchoq shevalari misolida)

Ortiqboyeva Dilshoda Oybek qizi
Namangan davlat universiteti
4-bosqich iqtidorli talabasi

Annotatsiya: *Maqolada o‘zbek tilining qipchoq lahjasidagi yordamchi so‘z turkumlariga oid so‘zlarning qo‘llanishiga xos lisoniy jarayonlar haqida fikr yuritiladi. O‘zbek qipchoq shevalarida qo‘llaniladigan yordamchi so‘zlar – ko‘makchi, bog‘lovchi va yuklamalarning o‘ziga xos voqelanishi; ularning dialektal nutqda qo‘llanilishidagi shakliy, semantik, pragmatik va funksional xususiyatlari ko‘rsatilgan. Shevalardagi yordamchi so‘zlarni nutqiy-pragmatik qo‘llanilishini adabiy til materiallari bilan solishtirilgan.*

Kalit so‘zlar: *sheva, yordamchi so‘zlar, adabiy til, ekvivalentlik, shakl, mazmun, ifoda va pragmatik qo‘llanish, lingvistik areal.*

Аннотация: *В статье рассматриваются лингвистические процессы, характерные для употребления вспомогательных частей речи в кыпчакском диалекте узбекского языка. Показано, что вспомогательные слова, используемые в узбекско-кипчакских диалектах, представляют собой специфическую реализацию вспомогательных слов, союзов и частиц; показаны их формальные, семантические, прагматические и функциональные особенности при использовании в диалектной речи. Сопоставлено речево-прагматическое употребление служебных слов в диалектах с материалами литературного языка.*

Ключевые слова: *диалект, служебные слова, литературный язык, эквивалентность, форма, содержание, выражение и прагматическое применение, лингвистический ареал.*

Abstract: *This article examines the linguistic processes characteristic of the use of auxiliary parts of speech in the Kipchak dialect of the Uzbek language. It has been shown that auxiliary words used in Uzbek-Kipchak dialects are specific realities of auxiliary words, conjunctions, and particles; their formal, semantic, pragmatic, and functional features in dialectal usage have been demonstrated. The speech-pragmatic usage of auxiliary words in dialects was compared with literary language materials.*

Keywords: *dialect, auxiliary words, literary language, equivalence, form, content, expression and pragmatic application, linguistic area.*

O‘zbek tilshunosligida yordamchi so‘zlar va ularning tildagi o‘rni va vazifasi haqida ko‘plab ilmiy va amaliy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Hozirgi o‘zbek adabiy tili Jumladan, professor A.Pardayevning tadqiqotida quyidagicha ifodalangan: “Umumlingvistik qonuniyat sifatida yordamchi so‘zlarning quyidagi xususiyatini sanash mumkin: Grammatik ma’nolarni ifodalashga xizmat qiladigan va so‘zlovchi ongida alohidalik sifatida mavjud bo‘lgan birlik (ya’ni so‘z). Grammatikalizatsiya tabiati esa tilning sintetik yoki analitik, flektiv yoki agglyutinativligi, unda morfologik va sintaktik sathlarning rivojlanganlik darajasi, shuningdek, har bir til uchun o‘ta xususiy bo‘lgan qonuniyatlar bilan belgilanadi va bunda umumiy, yagona mohiyat umumlashmalik darajasidir. Ayrim hollarda bunday umumlashmalik universallik, umumlisoniylik darajasida bo‘lishi ham, chunonchi, birikuv (aniqrog‘i, joylashuv, lokalizatsiya) dunyoning barcha tillari uchun eng kuchli atributiv aloqa shakli, har bir til uchun o‘ta xususiy va ayrim, ba’zan sanoqli holatlarga aloqador bo‘lishi ham (chunonchi, o‘zbek yoki rus tilida jamlovchi son) mumkin. Bu tilning ichki, tizimiy xususiyatlari bilan bog‘liq. Yordamchi so‘zlarning ichki bo‘linishi ham shunday. Unda ko‘makchi va bog‘lovchilarning sintaktik (bog‘lash) vazifaga ixtisoslashganligi, yuklamalar esa qo‘shimcha ma’no ifodalash vazifasini bajarishi

umumlingvistik qonuniyat sifatida amal qiladi[1].

Darhaqiqat, bunday so‘zlarning leksik ma’no anglatmasligidan kelib chiqib lingvomadaniy yoki lingvokonseptual tahlillar olib borish yuzasidan biron bir nazariy yoki amaliy ishlar olib borilmayotgani, olamning lisoniy manzarasidagi o‘rni hali belgilanmaganligi zamonaviy tilshunoslikda muammoli masala. Ammo ularning grammatik vazifasi muhim ekanligidan kelib chiqqan holda funksional so‘zlar sifatida ham izohlanadi.

O‘zbek shevashunosligida qipchoq shevalaridagi yordamchi so‘zlar masalasida boshqa sohalarga nisbatan kam ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Bu borada olib borilgan ishlar, bizningcha, yetarli emas.

Fattoh Abdullayevning 1961-yilda nashr etilgan “O‘zbek tilining Xorazm shevalari” nomli tadqiqotida Xorazm qipchoq shevalarida yordamchi so‘z turkumlaridan faqat *bilan* ko‘makchisi haqida tahlillarini keltirib o‘tgan.

Xorazm qipchoq lahjasida qo‘llaniladigan ko‘makchilarning variantlari quyidagilar: *bilan (mïnän), üčïn, arqali, qarši, bet, qarap, qarayanda, körä, yaraša, jaq (tomon), sari, sajin, ilgari, tarap, burin, äväl, kïjïn, soŋ, berï, körä, bijaq, bašqa, ald//äld, arqa, jan, orta, ara, tiš, ič, tüv (tag), ast, üst, tepä, haq, tuvri, tuvrali.* Olim Xorazm qipchoq shevalarida qo‘llaniladigan ko‘makchilar biroz fonetik farq bo‘lsa-da, adabiy tilga ma’no va funksional jihatdan mos kelishini, shevalarda ko‘makchili konstruksiyalar nihoyatda keng tarqalganligini ta’kidlab o‘tadi. Shuningdek, ushbu tadqiqotda yuklamalar haqida ham fikr bildirilib, bu shevalardagi yuklamalar adabiy tildan fonetik va vazifa bajarishi jihatdan farqlanishini qayd etadi. 10 dan ortiq yuklamalarni lisoniy tadqiq qilar ekan, faqatgina adabiy tilda ta’kid ma’nosini ifodalaydigan *-ku* yuklamasi Xorazm qipchoq shevalarida *-γo, -γu* shaklida yoki adabiy tilda so‘roq mazmunini ifodalaydigan *-mi // -mï* yuklamalari *-ma // -mä* ko‘rinishida ifodalanishini qayd etadi[2].

Navoiy viloyati shevalarini o‘rgangan tadqiqotchi N.Raxmonov o‘zining dissertatsiyasida qipchoq shevalaridagi yordamchi so‘zlarni ham tahlil qilgan. Tadqiqotchi tadqiqotida kuzatishimiz mumkinki, unda *bilan, uchun, qadar, keyin, so‘ng* kabi shevada uchraydigan fonetik va morfologik variantlarini tahlil qilgan va misollar asosida izohlashga harakat qilgan.

Navoiy viloyat shevalarida qiyoslash, o‘xshatish, ma’nolarini anglatadigan *kabi, singari* ko‘makchilari o‘rnida kishilik olmoshlaridan so‘ng *-däj* qo‘shimchasi bilan birga *[-kičin/-kičin]* shakli qo‘shilishidan hosil bo‘lgan murakkab qo‘shimchalar ishlatiladi. Masalan: *mandajkičin/mendajkičin, šundajkičin, siladajkičin, unāqičin, šunāqičin* kabi. Bu Shahrisabz shevalarida boshqacharoq qo‘llaniladi: *bizadačikin, mennāxčikin, sennāxčikilladdi ektasini burozi* (bir o‘zi) *uradi*[3].

Yordamchi so‘zlar qipchoq shevalaridagi bunday so‘zlarning bir qismi, xalos, chunki shevalarda ularning ko‘plab fonetik shakllari va morfologik-leksik muqobillari mavjud, deyish mumkin. Yuqorida tadqiqotchilardan birining Xorazm qipchoq lahjasida qo‘llaniladigan *bilan* ko‘makchisining quyidagi fonetik yoki leksik variantlarini (sinonimlarini) keltirganini eslatib o‘tgan edik: *mïnän, üčïn, arqali, qarši, bet, qarap, qarayanda, körä, yaraša, jaq (tomon), sari, sajin, ilgari, tarap, burin, äväl, kïjïn, soŋ, berï, körä, bijaq, bašqa, ald//äld, arqa, jan, orta, ara, tiš, ič, tüv (tag), ast, üst, tepä, haq, tuvri, tuvrali.*

Qayd etish lozimki, o‘zbek tilidagi yordamchi so‘zlar guruhining o‘zida bir-biridan nutqdagi o‘rni hamda funksional farq qiluvchi ko‘makchi, bog‘lovchi, yuklama kabi vakillarining mavjudiyati va lisoniy tizimda amalda bo‘lishi turkiy tillarning grammatik qurilishiga asosan mos keladi. O‘zbek tilining qipchoq shevasidagi ko‘makchilar qatorining paydo bo‘lishi, nutqda qo‘llanilish xususiyati turkiy tillarning agglyutinativ tabiati hamda ularda yordamchi so‘z turkumlarining asosiy so‘z (mustaqil)

---

[1] Пардаев А.Б. Ёрдамчи туркумларнинг субстанциал ва прагматик хусусиятлари. Монография. – Тошкент, 2013. – Б. 11.

[2] Абдуллаев Ф.А. Хоразм шевалари, I луғат, II Хоразм шеваларининг таснифи. – Тошкент: Фанлар академияси, 1961. – Б. 153-154; 175.

[3] Раҳмонов Н. Ўзбек тили Навоий вилояти шевалари морфологик хусусиятларининг лингвоареал тадқиқи. Филол.фан.б.фалс.док. (PhD) дисс. – Самарқанд, 2019. – Б. 56-57.

turkumlaridan desemantizatsiya va grammatikalizatsiya hodisalari orqali til tadriji davomida shakllangan. Bu jarayonning o‘zini til birliklarining konversiyasi deb ham baholash mumkin. Masalan, o‘zagi son (bir)ga bog‘lanuvchi birlan (bilan) ko‘makchisining semantik va shakliy differensiyasi tufayli *billä, minän // minäm, -man* shakllarini olishi, bunga mos ravishda shevalarda semantikaning kengayishi kuzatiladi. *-man (bilan-minan -man)* shaklining so‘nggi ko‘rinishi tilimizning qipchoq shevalarida qipchoq tillarida, aytaylik, qozoq tilidagi birgalik kelishigi *(kөmektes septik)* kabi qo‘llanadi: *atamman bardïm, ertämän turdim, qalamman jazdïm, mašïnman bardim* kabi. Shuningdek, qipchoq shevalaridagi *šonïŋ üčün, ošanïŋ üčün* kabi ergashtiruvchi bog‘lovchilar ham adabiy tildagi sintaktik qoliplarni nutqda qo‘llash natijasida shevada shakllangan va hakozo.

Demak, o‘g‘zaki nutqda yordamchi so‘z turkumiga oid birliklarning qo‘llanish statistikasining kamligini quyidagicha izohlash mumkin: shevalardagi jonli muloqot imo-isholarga boyligi; turli nolisoniy vositalardan foydalanishi; so‘z tartibi va ohangning jo‘rligi va boshqalar. Yuqorida sanab o‘tilgan vositalar yordamchi so‘z turkumlari bajaradigan vazifalarni bajarishi tufayli jonli muloqotda ularning statistikasi yuqori bo‘lmaydi. Ammo so‘z va birikmalarni o‘zaro bog‘lab, mazmun ifoda etishdek muhim pragmatik vazifani bajaradi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, qipchoq lahjasida so‘zlashuvchi aholining jonli muloqot tili adabiy tildan ta’sirlanish kuchli bo‘lsa-da, shevalarda ularning lingvistik elementlari saqlanib qolgan. Qipchoqlar tili o‘zbek adabiy tilining tarixiy bosqichlarida ham o‘ziga xos o‘rin tutgan. Eski o‘zbek adabiy tilining klassik namunasi bo‘lgan A.Navoiy asarlari tilida ham qipchoq elemantlari mavjud va bu holat tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan va dalillangan.

Qipchoq lahjasidagi yordamchi so‘z turkumlariga oid birliklar qo‘llanilish jihatdan o‘zbek, umuman, turkiy tillar tabiatiga mos hisoblanadi. Ular asosan adabiy tildan fonetik, funksional vazifasi va soni jihatdan farq qiladi. Shuningdek, ko‘makchi, yuklama va bog‘lovchilar o‘zaro o‘rin va vazifa bajarish yuzasidan almashinib ifodalanish holatlari bilan ham farqlanadi. O‘zbek tilining qipchoq shevasidagi ko‘makchilar qatorining paydo bo‘lishi, nutqda qo‘llanilish xususiyati turkiy tillarning agglyutinativ tabiati hamda ularda yordamchi so‘z turkumlarining asosiy so‘z (mustaqil) turkumlaridan desemantizatsiya va grammatikalizatsiya hodisalari orqali til tadriji davomida shakllangan. Masalan, o‘zagi son (bir)ga bog‘lanuvchi birlan (bilan) ko‘makchisining semantik va shakliy differensiyasi tufayli *billä, minän / minäm, -man* shakllarini olishi, bunga mos ravishda shevalarda semantikaning kengayishi kuzatiladi. *-man (bilan-minan-man)* shaklining so‘nggi ko‘rinishi tilimizning qipchoq shevalarida qipchoq tillarida, aytaylik, qozoq tilidagi birgalik kelishigi *(kөmektes septik)* kabi qo‘llanadi: *atamman bardïm, ertämän turdim, qalamman jazdïm, mašïnman bardim* kabi.

O‘zbek tili qipchoq lahjasining turli shevalarida so‘zlashadigan aholi yashovchi Baxmal, G‘arbiy Samarqand (Juma), Bulung‘ur, G‘allaorol, Chiroqchi, Surxondaryo (Boysun-Sherobod), Payariq, Navoiy, Bog‘ot, Angren (Qurama), Jo‘sh, Qamashi, Namangan (Pop), Urgut, Xatirchi tumanlaridagi qipchoq shevalari vakillari nutqida yordamchi so‘z turkumlarining qo‘llanilishi adabiy til va boshqa lahjalar bilan umumiy va farq qiluvchi xususiyatlar namoyon bo‘ldi. Bu esa shevalardagi yordamchi so‘z turkumlarining lisoniy tabiati va maqomi adabiy tildagi vaziyatga yaqin ekani va hatto yordamchi so‘zlarning fonetik va morfologik variantlarining ancha boy va rang-barang ekanligini namoyon qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Пардаев А.Б. Ёрдамчи туркумларнинг субстанциал ва прагматик хусусиятлари. Монография. – Тошкент, 2013. – Б. 11.
2. Абдуллаев Ф.А. Хоразм шевалари, I луғат, II Хоразм шеваларининг таснифи. – Тошкент: Фанлар академияси, 1961. – Б. 153-154; 175.
3. Раҳмонов Н. Ўзбек тили Навоий вилояти шевалари морфологик хусусиятларининг лингвоареал тадқиқи. Филол.фан.б.фалс.док. (PhD) дисс. – Самарқанд, 2019. – Б. 56-57.